

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi tomonidan 2024- yilning II- choragida
Davlat statistika ishlar dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida
Boshqarma boshlig'i Sh. Tayloqovning**

AXBOROTI

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i Sh. Tayloqov yig'ilishni ochib berdi va kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 22- yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga doir Davlat dasturi" doirasida tizim oldiga belgilab berilgan. Topshiriqlarni so'zsiz, sifatli va o'z muddatida ijrosini ta'minlash borasida 2024- yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o'tdi.

Shuningdek, "2024- yil uchun Davlat statistika ishlari dasturi" doirasida boshqarma va tuman, shahar statistika bo'limlari tomonidan 2024- yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning oylarida Qashqadaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda **29 839,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davri bilan taqqoslaganda **6,0 %** ga o'sdi.

Viloyat korxonolari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylari davomida **17 091,0** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi **107,8 %** ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **16 755,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,7 %** ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **10 733,8** mlrd. so'mni, 2023- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,3 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi **10 364,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **7,6 %** ga oshdi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-iyun oylarida **608,4** mln. AQSh dollarini, jumladan eksport – **275,6** mln. AQSh dollarini va import – **332,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra viloyat bo'yicha doimiy aholi soni **3 594,1** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **17,1** ming kishiga yoki **0,5 %** ga o'sdi.

Xususan, 2024- yil uchun Statistika dasturiga muvofiq, joriy yilning yanvar-iyun oylarida jami **314** ta statistika ishlari belgilangan hajm va muddatlarda bajarildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylari uchun Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotlar tayyorlanib, viloyat hokimligi, viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish boshqarmasi hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga taqdim etildi.

Statistika dasturiga muvofiq, bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra axborotnomalar va press-relizlar ko'rinishida shakllantirilgan ochiq statistika ma'lumotlari ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda milliy va xorijiy foydalanuvchilar e'tiboriga yetkazib berildi.

Xususan, boshqarmaning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy Telegram kanalida **2 894** ta, Facebook sahifasida **725** ta tahliliy-statistik ma'lumotlar yangiliklar ko'rinishida e'lon qilindi, infografika roliklari boshqarmaning Youtube kanalidagi rasmiy sahifasida joylashtirib borildi. Shuningdek, **147** ta infografika roliklari hamda statistika faoliyatiga oid **14** ta lavhalar "Qashqadaryo", "Nasaf" telekanallarida doimiy tarzda e'firga uzatilib kelinmoqda. "Adolat kuchi", "Qashqadaryo", "Xazina", "Voha" va boshqa nashrlarda statistik ko'rsatkichlar aks etgan **72** dan ortiq materiallar chop etildi.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining "Rasmiy statistika" bo'limida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, investitsiya va boshqa qator statistika yo'nalishlari bo'yicha **386** ta statistika ma'lumotlar to'plamlari e'lon qilindi.

Statistika ma'lumotlari sifatini oshirish borasida hisobot topshiruvchi subyektlar o'rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida **2 340** ta respondentlarga tushuntirishlar o'tkazilib, jumladan, **2 204** ta yangi tashkil etilgan respondentlar profilaktika tadbirlari davomida qamrab olindi, **2 131** ta bukletlar tarqatildi va **130** marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.